



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

«ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ
МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ»
МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТ УНИВЕРСИТЕТИ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

"QISHLOQ VA SUV XO'JALIGINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI"

XXII - yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarining
ilmiy - amaliy anjumanı

TOSHKENT 2023 12-13 MAY

www.tiqxmmi.uz [@tiqxmmi](#) [@tiqxmmi](#) [@tiqxmmiofficial](#) [@tiqxmmi](#) 09 629-78-46

"ҚИШЛОҚ ВА СУВ
ХЎЖАЛИГИНИНГ ЗАМОНАВИЙ
МУАММОЛАРИ"

мавзусидаги аънанавий XXII - ёши
олимлар, магистрантлар ва
иқтидорли талабаларнинг илмий
- амалий анжумани

22

XXII - traditional Republic
scientific - practical conference of
young scientists, master students
and talented students under the topic

"THE MODERN PROBLEMS OF
AGRICULTURE AND WATER
RESOURCES"

МАҚОЛАЛАР ТҮПЛАМИ

I ТОМ

Тошкент - 2023 йил, 12-13 маъ

	Мырзакулова Олжыт Ерланбекова, магистрант “ТІОХММТ” Милли тәжіпот университеті	Технологияның тарихы.	
218.	Professor K.D.Astankulova ¹ , ass. F.E.Ravshanov ² , magistr S.B. Mambova ¹ , 4 курс талебаси G.H.Ravshanova ¹ “ТІОХММТ” МТУ профессор ¹ , “ТІОХММТ” МТУ ассистент ² , “ТІОХММТ” МТУ магистрант ¹ , “ТІОХММТ” МТУ талебаси ¹	Merkzedan epocha apparat yordamida mineral o'g'itimi sepih ko'matkichlarini tekshiri shuning laboratoriya standini ihsilb chiqish..	913-915
219.	Abdullahayev Ramazjanov Xakimjon o'g'li, 114-guruh talебаси “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Taribida neft-moy mahsulotlari manjud oqpa anvlatma innovatsion tezashash qurilmasi.	916-920
220.	O'qituvchi: Yuldashev Shaxsobz Xoshimjon o'g'li, Namangan imuandylik-qurilish instituti	Makkajo'xori urug'hi eskiiga tayyerdash sof urug'lik donimning yetishish jaryny.	921-926
221.	Igamberdiev Asqar Kimsanovich, t.f.d.professor, Abvalomov Sunnatillo Karim o'g'li, Qarshiboyev Temur Nuraliyevich, 3-kurs talabelari “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Yuqori qurvadagi traktorlarga maqbul qishloq xo'jaligi mashinasini tanlash, ish umumi, qurvat va yonilg'i tarbi bo'yicha bajarlash	926-934
222.	Igamberdiev Asqar Kimsanovich, t.f.d.professor, Mamatova Nurbuz Moliyeva, Qarshiboyev Temur Nuraliyevich, 3-kurs talabelari “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Yuqori qurvadagi traktorlarga maqbul qishloq xo'jaligi mashinasini tanlash.	934-942
223.	Usmonov Kamoliddin Ershigulovich, o'qituvchi, t.f.d., Usimova Xomsodbegim Mirzaaziz qizi, 2- bosqich talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Mava – salzavot mahsulotlarining eng tajamkor xususiyiyat qurilmasi.	942-945
224.	Mamatqulova Maximur Erkin qizi, 2-kurs talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Gidromotorlarning ihsilash tamoyillari va turlari.	945-948
225.	F.E.Ravshanov, assistent, M.M.Safarmatov., taleba “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Qishloq xo'jaligidagi tomonchilik sug'orishidan foydalansh.	948-950
226.	Masharifova G.S, Xamidova M.A, 2-kurs talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Metrologiya va standartlashtirishda raqamli texnologiyalar.	950-953
227.	Mirzoeva Shakimova, 1st year doctoral student “TIAAME” National research university	Agrotechnical measures for current condition of desert and pasture and its improvement ways.	953-957
228.	Salomova Dilyara Vahob qizi, 2-bosqich talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Priyozami qurilishning afzalliklari.	957-961
229.	Quralov Srojiddin Doniyorovich Qishloq xo'jaligini mezonatasiyalash ilmiy tәjіpot institutu tayanch doktoranti	Rеспубликада саримоқпікес махсулотини yetishishida mezonatasiyalashagan qurilmalarga bo'lган сабаки va унинг сарвараси.	962-964
230.	Igamberdiev Asqar Kimsanovich, t.f.d.professor, Rahmonova Farzaya Imanulla qizi, 3-kurs talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Manjud qishloq xo'jalik mashina uchun energetik vosita (traktor)ni tanlashini nazorat etish, qurvat tarbi, ish umumi va yonilg'i tarbi bo'yicha bajarlash.	964-974
231.	Xaliquov Muxaffar Qishloq xo'jaligini mezonatasiyalash ilmiy tәjіpot institutu 2-kurs tayanch doktoranti	Rеспубликада ildiz mevalarini hovilini yig'ishinib olishning maqbul yechimlari.	974-979
232.	Turumov Sherzod Xojaqbar o'g'li, 3-kurs talebasi “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Qishloq xo'jalik mahsulotlarni saqlashning xalq xo'jaligidagi axuniyati.	979-983
233.	Tangirov I.U., magistrant Toshkent Davlat Texnika Universiteti	Krinoviship – kalinali mezonatini kinematikasini chunda 'kompas-3d' dasynduda tadqiq etish.	983-986
234.	T. Faziliddinov, magistrant, M. Minzumonova, A.Halilov, M.Shadiyeva, talabalar “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	No'ell 3D, usunguch nesnali bir cho'mochili giderlik ekakavatorini o'zbekiston sharoitida ihsilash xususiyatlari va ish ummadodligini osbirish usullari.	987-992
235.	Yoliquov O.O., magistrant Toshkent Davlat Texnika Universiteti	Ko'rik tarish mashinali boytgich qismiga tsair shuychi emillerning tajriba matjazada olingan natijsalarini korellyatsion va regression mexil qilish.	993-996
236.	Xolmuratova Go'sal Miradowna, 2 kurs doktoranti “ТІОХММТ” Milliy tәjіpot universiteti	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni klaster tisimini joytu qilish mezonatlari.	997-1001
237.	Хурматов Жасур Хамиджұлғызы, Усаменов Отасөбек Улугбек ұлсы, 3-курс 311 гурӯҳ талебасы, Рузаев Даирисбек Иманжановты, стажер- үзіншүгүчі, Барынгутов Пархат Талапқаралығы.,	Гидроэнергетика - түркестан федерациясының жаңа үсмешкелерен үстелген технологиясы.	1001-1006



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov M., Isomiddinov M., Mamadaliev G., Ganiev K. O'tmishdosh skinlarning tuproq va hosliga tas-siri // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2009. – № 2. – 23 b.
2. Ostonaqulov T., Mamatov B. Sabzavot makkajo'xori takroriy skin sifatida // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2008. – № 5. – 26 b.
3. Dospaxov B.A. Metodika poluvogo opasta. – M.: Kolos. 1979. – 416 s.
4. Pyankov A.I. Kukuruza // Fiziko-mekanicheskie svoystva rasteniy, pochv i udobreniy. – M., 1970. – S. 226-241.
5. Valijonovich R. S., Ahmadjanovich T. A., Khoshimjon Y. S. Causes And Consequences Of Floods And Floods In The Safety Of Life, Measures To Protect The Population And The Territory // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – S. 83-86.
5. Yoqutxon G'ulomjonovna, Y. ., & Xoshimjon o'gli, Y. S. . (2021). CAUSES OF FLOOD AND FLOOD DAMAGE ALSO PREPARE TO DO THE RIGHT ACTION IN THIS EMERGENCY SITUATION. International Journal of Development and Public Policy. 1(3). 158-161. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/398>
6. TIQXMMI: (PhD) Fazilov G'olibjon G'ulomjonovich Dissertatsiyasidan foydalangan xolda

YUQORI QUVVATLI TRAKTORLARGA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MASHINASINI TANLASH, ISH UNUMI, QUVVAT VA YONILG'I SARFI BO'YICHA BAHOLASH.

NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY

Igamberdiev Asqar Kimsanovich - "TIQXMMI" MTU, t.f.d., professor

Absalomov Sunnatillo Karim o'g'li - QXM fakulteti 3-kurs talabasi

Qarshiboyev Temur Nuralijewich - QXM fakulteti 3-kurs talabasi

Annotasiya:

Yuqori quvvatlari traktor va plugdan tuzilgan mashina-traktor agregatining yuqori ish unumдорлиги ва кам yonilg'i iste'moli bo'lган muayyan ish sharoitlarida ishlash qobiliyatları ko'pincha maqbul agregatlarni tuzish va foydalanimishdagi xatolar tufayli to'liq foydalanimayotganligini inobatga olib, John Deer-5020 rusumli traktor va 3 korpusli EvrOpal 5 N 90 plugdan tuzilgan mashina traktor agregatini texnologik operasiyaning zarur sifati, yuqori ish unumi va kam yonilg'i iste'molini ta'minlash maqsadiga maqbul tuzish usuli taklif qilingan.

Kelit so'zlar: yuqori quvvatlari, keng qamrovli, tanlash, tuzish, qishloq xo'jaligi mashinasи, traktor, quvvat sarfi, yonilg'i sarfi, ish unumi, baholash.

Kirish. Traktor dunyodagi aksariyat fermalar ishimini bajaruvchi asosiy energetik vosita hisoblanadi. Fermer xo'jaligi ehtiyojlariga muvofiq energetik vositalarni muvaffaqiyatli tanlash oson ish emas. Chunki, ko'plab tanlov mezonlari mavjud. Bir narsa aniqliki, har bir fermer ko'p miqdorda

qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish uchun o'zi rejalashtirgan barcha vazifalarni (operasiyalarni) sifatli bajaradigan ishonchli, samarali, iqtisodiy va funksional yordamchi hisoblangan mashina-traktor agregatlariga ega bo'lishni xoxlaydi. Ular uchun asosiy tanlov mezonlaridan biri bu dvigatel quvvati hisoblanadi. Garchi traktoring imkoniyatlarini baholash uchun ilmoqdagi tortish quvvat, yoki tortish kuchi kabi parametmi hisobga olish eng to'g'ri mezon hisoblansada biroq, ko'pchilik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar ushbu parametrlarning xususiyatlariiga emas, faqat dvigatel quvvatiga ishonadilar [1].

Odatda yuqori quvvatlari, kuchli, katta mashina va mexanizmlarni, yoki keng qamrovli, qishloq xo'jalik mashinalarni yaratish, birinchi navbatda, ularning mahsuldarligi va ish unummini oshirish istagi bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligida yuqori quvvatli traktorlardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, g'ildirakli traktorlar dvigatelinining quvvati bo'yicha o'rtacha yuklanishi 45..50 % ni tashkil qiladi, qolgan quvvat traktor g'ildiragining tuproqni deformasiyalashga, toyishiga, shataksirashiga sarflanadi, ya'ni energiyaning katta qismi samarasiz sarflanadi [2]. Natijada yonilg'i sarfi isrofgarchiligiga yo'l qo'yiladi va sun'iy ravishdsa yonilg'i taxchilligi vujudga keladi. Bu negativ holat texnologik operasiyalarni kechikib bajarilishiga sabab bo'ladı. Ushbu muammomi bartaraf etish uchun agregatlar tarkibini oldindan modellashtirish va ulardan foydalanishning ogilona ish rejimlarini hisoblash zaruratining mavjudligi seziladi. SHuning uchun, yuqori quvvatli traktorlar odatda energiyahajendor hisoblanishini inobatga olib, ularning tortish xususiyatlarni bir tomonidan dvigatel quvvati, g'ildiraklarining er bilan ilashish sharexitini ikkinchi tomonidan tahlil qilish, shu asosda mashina traktor agregatini tuzish, uning ish umumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholashni amalga oshirish maqsadiga muvofiq bo'ladı [3,4].

Muammoning qo'yilishi. Ma'lumki, xozirgi davrda qishloq xo'jaligi korxonalariga mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko'p miqdorda yangi, yuqori quvvatli traktorlar, keng qamrovli qishloq xo'jalik mashinalari, o'ziyurar murakkab mashinalar olib kelinmoqda. Bu texnikalar yuqori darajadagi ishonchliliqi, avtomatik boshqaruvi tizimlarining mavjudligi, mashina mexanizm va uzellarining ishini nazorat qilinishi kabi jihatlarga ega bo'lib, jarayonlarni yuqori sifatda bajaradi hamda tejamkor ish rejimini ta'minlaydi. Lekin, mashina-traktor agregatlardan eng katta (maksimal) ish umumi va eng kam (minimal) yonilg'i iste'moli bo'yicha muayyan ish sharoitlari uchun tuzish va foydalanishdagi xatolar tufayli ulardan to'liq foydalanilmayotganligi xozirgi kunda yonilg'i etishmaslik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, yuqori quvvatli traktorlarning quvvatini oshirish, ya'ni, ulardan tuzilgan mashina-traktor agregatlarning ish unummini oshirish tuproqqa tejamkor munosabatda bo'lisch talablari bilan cheklanmoqda. Bir qarashda, traktor dvigatelinining quvvati tuproqni saqlashga qanday ta'sir qilishi mumkin? degan savol tug'iladi. Gap shundaki, dvigatel quvvatidan unumli foydalanish va uni yo'qotmasdan traktorga, keyin erga o'tkazish uchun ishchi jihozlar tegishli vazniga ega bo'lishi kerak. Qishloq xo'jaligi traktorlaridan foydalanishda bu muammo mavjud. Chunki, biz bilganimizdek, tuproq tirik organizm, uning strukturasini buzilishiga, tuproq eroziyasining hosil bo'lishiga, tuproq ustti va osti qatlamini zichlamishi, g'ovakligining kamayishi va suv o'tkazuvchanligining pasayishiha yo'l qo'ymasligimiz, uni himoya qilish kerak.

Tadqiqot uslubi. energiyani tejaydigan mashina-traktor agregat tarkibini hisoblash yuqori quvvatli traktor va qishloq xo'jaligi mashinasi maqbul tarkibini tanlash maqsadini ko'zlagan amal hisoblanadi. Maqbul tuzilgan mashina-traktor agregat muayyan ish sharoitida bajariladigan texnologik operasiyaning talab qilinadigan sifatda, eng yuqori ish unummini va eng kam yoqilg'i sarfini, ya'ni eng kam energiya sarfini ta'minlaydi.

Ushbu maqsadga agregat tarkibidagi traktoring berilgan sharoitda tortish quvvatidan foydalanish koeffisienti mumkin bo'lgan eng yuqori foydalanish koeffisientiga yaqin bo'lganda erishish mumkin bo'ladi [1], ya'ni.

$$\eta_T = \frac{N_{ag}}{N_s} \rightarrow \eta_T^{\max} = \frac{N_u^{\max}}{N_s} \quad (1)$$

bu erda N_{ag} - agregatning berilgan sharoitda ishlashi uchun zarur bo'ladigan quvvat, kVt; N_s - traktor dvigatelining samarali quvvati, kVt; η_T^{\max} - berilgan ish sharoiti uchun traktoring ilmoqdagi quvvatidan foydalanish koeffisienti; N_u^{\max} - berilgan ish sharoiti uchun traktoring maksimal ilmoqdagi tortish quvvati, kVt.

Tadqiqot natijalari. Bunday muammomi echish uchun bajariladigan operasiya, egori quvvati traktor va agregatlanishi ko'zlanayotgan qishloq xo'jaligi mashinasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar bo'lishi kerak bo'ladi. Agar yuqori quvvathi John Deer 5020 rusumli traktorga EviOpal 5 N 90 rusumli plug tanlanishi kerak bo'lisa dastlabki ma'lumotlar quyidagiicha shakillantirilishi kerak:

1. Topshiriqda berilgan John Deer 5020 rusumli (markali) traktoring g'ildirak sxemasi (4x4);
2. traktor dvigatelining samarali quvvati $N_s = 65 \text{ kW}$;
3. solishtirma yonilg'i sarfi $q = 210 \text{ g/kW.saat}$;
4. tuproqning solishtirma qarshiligi $K = 30 \text{ kN/m}^2$;
5. traktoring foydalanish og'irligi $G = 35-50 \text{ kN}$
6. traktor transmissiyasining foydali ish koeffisienti, $\eta = 0,92$
7. traktor g'ildiraklarning ruxsat etilgan shataksirashi, $\delta = 15 \%$;
8. traktoring shudgorlashda agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq $v_{min} = 8 \text{ km/s}$ $v_{max} = 12 \text{ km/s}$.
9. Ishlov beriladigan maydon agrofoni - o'tloqli, ko'p yillik o'tlar qatlamlili, siqilgan (zichlangan) somonli dala yoki boshoqli va bir yillik o'tlar o'rib olingan ang'izli dala yoki makkkajuxori va kungabooqar o'nib olingan dala yoki diskli pichoqlar bilan ishllov berilgan ang'izli dala;
10. Traktor g'ildiraklarining agrofonidagi tuproq bilan ilashish koeffisienti $\mu = 0,8$;
11. traktor yurish qismining dumalanishiga qarshilik koeffisienti $f = 0,08$;
12. traktor ishlaydigan dala maydonining qiyaligi, $i = 3 \%$.

Agregatda amalga oshirish mumkin bo'lgan torish (foydali) quvvat N_f^{ab} agrotexnik jihatdan ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{min} va v_{max} qiymatlari uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N_f^{ab} = N_s \eta_i \left(1 - \frac{\delta}{100}\right) - \frac{G v_{min} (f \pm \frac{i}{100})}{3,6} = \\ = 65 \cdot 0,92 \left(1 - 0,15\right) - \frac{50 \cdot 8 (0,08 + 0,03)}{3,6} = 38,6; \text{ kN.}$$

$$N_f^{\pm} = N_s^n \eta_i \left(1 - \frac{\delta}{100}\right) - \frac{G_i v_{\max} (f \pm \frac{i}{100})}{3,6} = \\ = 65 \cdot 0,92 (1 - 0,15) - \frac{50 \cdot 12 (0,08 + 0,03)}{3,6} = 32,49; \quad \text{kN}$$

Shataksirash (sirpanish), o‘zini-o‘zi harakatga keltirish va qiyalik bo‘yicha ko‘tarilish (tushish) ni engib o‘tishga quvvat yo‘qotishlarni hisobga olgan holda traktoring ilashish wususiyatlari bilan belgilanadigan ilmoqdagi tortish quvvati formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$N_d^n = \frac{G_i \cdot v_{\min} \left[\lambda \mu - (f \pm \frac{i}{100}) \right]}{3,6} - N_s^n \cdot \eta_i \cdot \frac{\delta}{100} = \\ = \frac{50 \cdot 8 [1 \cdot 0,8 - (0,08 + 0,03)]}{3,6} - 65 \cdot 0,92 \cdot 0,15 = 67,69 \quad \text{kN}$$

$$N_d^n = \frac{G_i \cdot v_{\max} \left[\lambda \mu - (f \pm \frac{i}{100}) \right]}{3,6} - N_s^n \cdot \eta_i \cdot \frac{\delta}{100} = \\ = \frac{50 \cdot 12 [1 \cdot 0,8 - (0,08 + 0,03)]}{3,6} - 65 \cdot 0,92 \cdot 0,15 = 106,03 \quad \text{kN}$$

Eng katta tortish quvvatiga erishiladigan agreget tezligi quyidagi ifoda bo‘yicha hisoblanadi:

$$v_{N_d^{\max}} = 3,6 \frac{N_s^n \cdot \eta_i}{G_i \cdot \lambda \cdot \mu} = 3,6 \frac{65 \cdot 0,92}{50 \cdot 1 \cdot 0,8} = 5,382 \quad \text{km/s}$$

Traktoring ilmog’idagi eng katta (maksimal) tortish quvvati quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$N_d^{\max} = N_s^n \cdot \eta_i \left(1 - \frac{\delta}{100} - \frac{f \pm \frac{i}{100}}{\lambda \cdot \mu}\right) = \\ = 65 \cdot 0,92 \left(1 - \frac{15}{100} - \frac{0,08 + \frac{3}{100}}{1 \cdot 0,8}\right) = \quad \text{kN} \\ = 65 \cdot 0,92 \left(1 - 0,15 - \frac{0,11}{0,8}\right) = 42,6;$$

Hisoblar natijalari bo‘yicha 3 ta variant bo‘lishi mumkin, ya’ni:

2-variant. Hisoblangan $D_{N_{\text{min}}^{\text{opt}}}$ agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq D_{min} va D_{max} qiymatlarida bo'lsa, ya'ni $D_{\text{min}} > D_{N_{\text{min}}^{\text{opt}}} > D_{\text{max}}$.

Bunday holatda agregatning maqbul harakatlarni tezligi V_{agg} eng katta tortish quvvati olinadigan V_{K_0} tezlikka teng bo'ladi va agregatning maqbul qamrov kengligi B_{agg} quyidagi nisbatda amilanadi:

$$B_{\text{max}} = \frac{N_{\text{eff}}^{\text{max}}}{N_{\text{eff}}}$$

bu yerda N_{ad} - qishloq xo'jalik mashinasi yoki bitta korpusning bir birlik qamrov kengligiga to'g'ri keladigan solishtirma cuvvat kW/m yoki kW/m².

Biz ko'rayotgan topshiriq bo'yicha hisoblangan tezlik ruxsat etilgan (8...12 km/s) tezliklar orasida bo'lganligi uchun 1-variantni qabul qilamiz.

Solishtirma quvvat har xil aggregatlar uchun quyidagiicha aniqlanadi:

1. Xavdov agregati uchun:

$$N_{sol} = \frac{v_{mag}}{3,6} (k_{pl} \cdot a \pm q_{pl} \cdot \frac{i}{100}) = \\ = \frac{5,3}{3,6} (30 \cdot 0,28 + 2,10 \cdot 0,03) = 21,64 \text{ kN}$$

bu yerda k_{pl} - plugning solishturma tortish qarshiligi, kN/m^2 ; a - plugning shudgorlash chuqurligi, m ; q_{pl} - plugning bir birlik ish kengligiga to'g'ri kelgan og'irligi, kN/m .

Endi biz tanlaydigan plugning maqbul qamrov kengiliği aniqlab olamız, ya'ni

$$B_{mag} = \frac{N_{fl}}{N_{sol}} = \frac{38,63}{21,64} = 1,78 \text{ m}$$

Har bir agregat turi uchun aniqlangan maqbul qamrov kengliklar B_{anq} , bo'yicha aniq qishloq xo'jaligi mashinasi (mashinalari) yoki plug tanlanadiki, unda tanlangan agregatning qamrov kengligi B_{ag} hisoblangan maqbul B_{anq} qamrov kenglikka yaqin bo'lisin

$B_{\text{sg}} \leq B_{\text{opt}}$ yoki $B_{\text{sg}} \leq B_{\text{options}}$

Internet ma'lumotlari yoki kurs ishiga oid ushubiy qo'llanma ilovalari yordamida maqbul qanrov kenglikga mos keladigan plug rusumini (markasimi) tanlab olamiz.

Bizning varianga EuroOpal 5 rusumli 3 korpusli variant mos keladi. Ya'ning uning qamrov keneligi 1,78 m tashkil etadi, ya'ni

$$B_{\text{sg}} \leq B_{\text{opt}} \text{ yoki } 3,6 \geq 1,78 \text{ m}$$

Mashina yoki plug (korpuslar soni bilan) tanlanganidan so'ng agregatning agrotexnik tezliklar chegarasida ($v_{min} \dots v_{max}$) ishlaydigan N_{av} quvvati aniqlanadi.

Barcha agregatlarining agrotexnik jihatdan ruxsat etilgan tezliklarining oraliq qiymatlarida ishlash uchun kerak bo'ladigan tortish quvvati quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$N_{\text{аг}} = \frac{R_{\text{аг}} (\nu_{\min} \dots \nu_{\max})}{3,6}, \text{ ya'ni;}$$

$$N_{eq} = \frac{R_{eq} \cdot U_{min}}{3.6}$$

$$N_{eq} = \frac{R_{eq} \cdot D_{max}}{3.6}, \text{ kN}$$

$$N_{\text{ax}} = \frac{n \cdot R_s \cdot v_{\text{min}}}{3,6} = \frac{3 \cdot 5,6 \cdot 8}{3,6} = 37,3 \text{ kN}$$

$$N_{ag} = \frac{n \cdot R_s \cdot v_{max}}{3.6} = \frac{3 \cdot 3,6 \cdot 12}{3.6} = 56 \text{ kN}$$

bu yerda R_{ex} - tanlangan agregatning tortishga (sudrashga) qarshiligi, kN.

R_{ag} = n · R_k

Tortishqa (sudrashqa) qarshilik R_{ag} agregat turiga qarab quyidagiicha aniqlanadi:

1. Bizzning variantdagи baydor agregati uchun:

Avväl tanlangan 3 korpusli EuroOpal 5 rusumli plug korpusining tortishga (sudrashga) qarshiligidini aniqlab olamiz:

$$R_k = k_n \cdot a \cdot b + g_n(\lambda_n + i) =$$

$$R_a = k_a \cdot a \cdot b + g_a(\lambda_a + i) =$$

$$R_b = k_n \cdot a \cdot b + g_n(\lambda_n + i) =$$


bu yerda: k_s - tuproqning solishtirma qarshiligi = 30 kN/m²; a - shudgorlash chugurligi, = 0,28 m; b - korpusning qamrov kenligi, (30, 35, 40, 45) m; g_s - plus konstruktiv massasimining korpuslar soniga

nisbati = 16,03; λ_p - osma pluglar bilan ishlaganda traktorga tushadigan qoshimcha yukni hisobga oluvchi koefitsient, $\lambda_p = 0,5-1,0$. O'rtacha qiymatini $\lambda_p = 0,75$ qabul qilamiz.

Traktor gildiraklarining tuproq bilan ilashishi yetarli bolgandagi maqbul V_{max} yoki oqlona V_{oqlona} tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$U_{\text{max}} = \frac{3,6 \cdot N_s^H \cdot \eta_i \left(1 - \frac{\delta}{100}\right)}{R_{\text{eq}} + G_i \left(f \pm \frac{i}{100}\right)} = \frac{3,6 \cdot 65 \cdot 0,92 \left(1 - 0,15\right)}{(5,6 \cdot 3) + 50(0,08 + 0,03)} = 8,2$$

Hisob natijalar masalaning grafo-analitik yechimi quyidagi 1-rasmda taqdim etamiz:



1-rasm. Agregatning oqilona ishlash rejimini grafo-analitik usulda aniqlash

Aniqlangan maqbul V_{agg} tezlikda agregat uchun talab etiladigan N_{ag} quvvat quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot v_{max}}{3,6} = \frac{(5,6 \cdot 3) \cdot 8,2}{3,6} = 38,26$$

Traktorning tortish quvvatidan foydalanishi koeffisienti (samaradorligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_{s,f} = \frac{N_{ag}}{N_s^{max}} = \frac{38,26}{42,6} = 0,90$$

Traktor dvigatelini quvvatidan foydalanish koeffisienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_{s,f} = \frac{N_{ag}}{N_s^n} = \frac{38,26}{65} = 0,588$$

Traktorning eng katta (maksimal) mungkin bo'lgan tortishish quvvatidan foydalanishi koeffisienti (samaradorligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_t^{max} = \frac{N_t^{max}}{N_s^n} = \frac{42,6}{65} = 0,655$$

Traktor dvigatelining samarali foydalaniladigan quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$N_s = \frac{v_{max}}{3,6} \left\{ R_{ag} \left[2 - \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100} \right) \right] + G_i \left(f \pm \frac{i}{100} \right) \right\} = \\ = \frac{8,2}{3,6} \left\{ 3 \cdot 5,6 \left[2 - 0,92 \left(1 - 0,15 \right) \right] + 50 \left(0,08 + 0,03 \right) \right\} = \\ = 2,27 \left\{ 16,8 \left[2 - 0,7733 \right] + (5,5) \right\} = 59,13$$

Traktor dvigatelining yuklanish koeffisienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_{yuk,yuk}^s = \frac{N_s}{N_s^n} = \frac{59,13}{65} = 0,91$$

Agregatning bir soat toza ish vaqtidagi hisobiy ish unumi quyidagicha aniqlanadi:

$$W = 0,1 \cdot B_{max} \cdot v_{max} = 0,1 \cdot 1,78 \cdot 8,2 = 1,46 \text{ ga/soat}$$

Har hektar maydonga sarf bo'ladigan hisobiq yonilg'i sarfi quyidagicha aniqlanadi

$$q_{\text{max}}^{\text{max}} = \frac{10^{-3} \cdot q \cdot N_s^H}{W} = \frac{10^{-3} \cdot 210 \cdot 65}{1,46} = 9,35 \text{ kg/ga}$$

Xulosalar:

1. Amalga oshirilgan nazariy tadqiqot va hisob natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan John Deer -5020 traktor 3 korpusli EuroOpal 5 plug bilan har bir korpusining qamrov kengligi 45 sm va 6,59 km/soat ish tezligi bilan ishlaganda berilgan sharoit uchun energiyatejamkorlik talabini qondiradi, maqbul yoki oqilona mashina traktor agregat tuzilgan hisoblanadi.
2. Shu bilan birga yana maqbul qarorni topish uchun agregatlashning boshqa variantlarini ham tahlil qilish tavsiya etilishi mumkin. Masalan, talablarga javob beradigan traktoring boshqa rusumini tanlab olib shu plug korpusining boshqa qamrov kengligida agregatni tuzish va tahlil qilib ko'rish ham mumkin. Agar, boshqa variantda tuzilgan xaydov mashina-traktor agregati qachon maqbul tuzilgan hisoblanadi, qachonki bir birlik bajarilgan ish uchun uning ish unumining eng yuqori, yonilg'i sarfining eng kam bo'lishiga erishiladigan bo'lса.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. A.K.Igamberdiev, N.A.Holqova, N.B.Razikov, O.E.Uzarov. Yuqori quvvatlari traktor va zamonaliviy qishloq xo'jaligi mashinali energiyatejamkor agregat turkibini asoslash// "Irrigatsiya va melioratsiya" №4(22).2020.-72-76.
2. M.T.Toshboltaev. O'zbekiston qishloq xo'jaligida mashina-traktor agregatlaridan foydalanimish darajasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016 - 604 b.
3. A.K.Igamberdiev, S.Alikulov. Qishloq xo'jaligi agregatlaridan samarali foydalanimishning nazariy asoslari// "Irrigatsiya va melioratsiya" №4(14).2018.-90-94.
4. A.K.Igamberdiev, S.Alikulov, N.B.Razikov, e.U.Umanov, O.e.Uzarov. The composition of the drive aggregate in relation to the dimensions of the treated area/ Annual international scientific conference on Agricultural engineering and Green Infrastructure Solutions (AEGIS-2021).

YUQORI QUVVATLI TRAKTORLARGA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MASHINASINI TANLASH.

*Igamberdiev Asqar Kimsanovich - "TIZQIMMI" MTU, t.f.d., professor
Mamatova Niliyfar Meliyevna - QXM fakulteti 3-kurs talabasi
Qarshiboyev Temur Nuraliyevich - QXM fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotasiya:

Yuqori quvvatlari traktor va plugdan tuzilgan mashina-traktor agregatning yuqori ish unumdarligi va kam yonilg'i iste'moli bo'lgan muayyan ish sharoitlarida ishlash qobiliyatları ko'pincha maqbul agregatlarni tuzish va foydalanimshdagi xatolar tufayli to'liq